

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-4/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмутовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нағмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.
Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc
Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.
Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Раҳимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Собитов Ўлмасбой Тоғжамедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тоғжибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердиқулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/4 (113), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 458 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abduvahabova M.A. Ingliz folklor matnilarining semiotik xususiyatlari	6
Achilova N.N. Ajarharo timsolining jahon va o'zbek xalqlari adabiyotlaridagi muxtasar talqinlari	8
Akramov I.I. A Comparative analysis of Shakespeare's and Rumi's aphorisms on love	11
Akramov B.Q., Abdullayeva A.U. Fransuz tilida bozor va savdo jarayoni leksikasining ijtimoiy talqini	14
Akramov B.Q., Zaripov J.A. Fransuz tilida tijorat terminoleksikasining lingvomadaniy xususiyatlari	17
Aliyeva S.A. O'zbek geortonimlarining etimologik xususiyatlari	20
Almamatova Sh.T. Abdulla Qahhor hikoyalarida sinonimlarning qo'llanilishi	22
Ataboyev N.B., Ergashova K.I. Inglizcha va o'zbekcha korpuslarda vaqt tushunchasi va ularning semantik tahlili	26
Axmedova G.N. "Yumor (hajv)" leksik birliklari va ularning semantik xususiyatlari	29
Azimbayeva D.A. Conversion in english-uzbek languages and its cognitive features as a linguistic way	32
Bafoyeva N.A. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida mavjud antropoidikatorlarning tahlili	35
Bahodirova F.B. Diskurs, stilistika va pragmatika	38
Bekniyozova F.O. Olamning lisoniy manzarasini yaratishning o'ziga xos tamoyillari	41
Bozorova O'Q. O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologizmlarda go'zallik konseptining qo'llanilishi	44
Burxonov B.B. Ingliz va o'zbek tillari kasbiy diskursining lingvokognitiv tadqiqi	46
Choriyeva Z.B. O'zbek va ingliz topishmoqlarining badiiy-kompozitsion xususiyatlari	49
Djumakulova D.K., Xoshimxo'jayeva M.M. Tarjimashunoslikda tarjima nazariyasi	52
Djumaeva N. History of investigating functional forms of the verb	54
Djumaeva N., Abdurakhmanova M. Religious picture of the world as an important component of linguistic picture of the world	56
Djumaeva N., Akhmadova N. Some characteristics of fairy-tale discourse	58
Djumaeva N., Murodova M. Diskurs lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot obyekti sifatida	61
Djurayev M.K. Kompyuter lingvistikasi imkoniyatlari va dasturiy texnologiyalar	63
Egamberdiyeva Sh.M. O'zbek va turk allalarida qushlar obrazi	68
Ergashova S.E. Eshqobil Shukur she'riyatida badiiy obraz takomili va badiiyati	70
Eshonqulova F.O. O'zbek va ingliz tilidagi maqollarning yosh va genderga oid xususiyatlari	72
Gafurov B.Z. Studying functional-semantic field of language as a linguistic phenomenon	75
G'ulomova R.R. Sociolinguistic analysis of curses of social groups of uzbek and english intellectuals	78
Hamroyeva Sh.Sh. The pragmatic aspects of translation	81
Haydarov A.A., Alimova M. Tovush talaffuzida ifodalangan konnotativ ma'nolar	84
Haydarova D.I. Nutqiy etiket va uning lisoniy tabiati	87
Ikramova K.Sh. Linguacultural peculiarities of the concept of 'woman' in Uzbek and English literature	90
Imamova G.T. "Boburnoma" asarida forcha o'zlashmalarning qo'llanilishi	92
Inamova D.E., Ismatova M.A. Compiling a parallel corpus for translation research	95
Ishqobilova H. Ingliz va o'zbek tillarida oila konseptining chog'ishtirma tahlili	98
Ismanova O.U. Terminlar unifikatsiyasi	100
Istamova D.S. Lexical, semantic-structural analysis of ecological terms in english and uzbek languages	103
Jomardova D.Q. Tibbiyot reklamalarida apellyativ leksikaning qo'llanilishi	105
Jumaniyazov A., Yusubova Ch. Nom ko'chishi yohud metonimiyalar haqida yana ayrim mulohazalar	108
Karimov R.A., Hamroyeva G. CLIC mualliflik korpusi tahlil metodlari	115
Karimova Yu.A. Lirik she'riyatda Bobur Mirzo siymosi	118
Khasanov M.A. Accent morphonological alternations in modern english	122
Khayrullayeva N.N. Semantic features of economic metaphors	125
Khodjaeva S.S. The problems of translating culture specific words	127
Kobilova A.B. Lingua-culture and the essence of the anthropocentric approach to language	130
Komilova N.S. Badiiy asarda diniy ohanglar talqini	134
Kurbonova N.R., Ikromova N.I. Ted Hyuz ijodi adabiy tanqidchilar nigohida	137
Kurbonov Z.O. Qo'shrabot tuman Mijgon va Tongit qishloqlari toponimikasi haqida ayrim fikr mulohazalar	141
Latipova S. Jo'ra Fozil hikoyalarida ijtimoiy muammolar talqini	144
Mahmudova N., Radjabboeva T. The types of transformations in german syntax	147
Makhmudova S.A. Cognitive aspects of meaning in the novels of James Aldridge	150
Makhsudova X.U. The theory of the origin of the concept of "fashion"	153
Mamajonov M.Yu. Psixolingvistik tadqiqotlar xususida	155
Mamatqulova Z.R. Rishton kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasining generatsiyasi va boyish manbalari	157
Matenova A.K. Ingliz lakunalarning aks etishi xolid xuseini asarlari asosida	159
Matnazarova X.S. Og'zaki diskurs tenorining U.Shekspir tragediyalarida berilishi	162

Matquliyeva M.F. “Oshiq G’arib va Shohsanam” dostonini turkiy xalqlar versiyasi bilan qiyosiy o’rganish	164
Mahmudov R., Atajanov Sh., Ruzmatova D.A. Turkiy qavmlarda shaxsga ism berish an’analari va motivlari	168
Mo’ydinov J.O. Principles of simultaneous interpretation: requirements for a simultaneous interpreter	171
Muminova N.S. Tilshunoslikda haqiqat konseptining kognitiv funksiyalari	174
Muratova D.M. Methods of automatic extraction of thesaurus relations on the basis of dictionary interpretations	177
Mustafayeva S.U. O’zbek va ingliz tillarida meronimiya va partonimiya munosabati	180
Narziyeva S.D. Samandar Vohidov aruziy she’rlarida didaktik ruh ifodasi	183
Nizomova Sh.Sh. Suv va olovga munosabatning o’zbek she’riyatidagi talqini	186
Normurodova F.T. Rang-tus leksikasining «ingliz-o’zbek-ingliz» tarjimai masalalari	189
Norova R.F. Ertaklar va ularning folklor bilan munosabatlari	192
Norqulov F.A., Qurbonboyeva Sh.F. Rasmiy ish yuritish uslubining funksiyalari	194
Ochilova G.U. Qarindoshlik otlari atamalari tadqiqi shakllanish tarixiga doir	197
Ochilova O. Janr tadriji, qahramon xarakteri takomillashuvining ifoda qirralari va badiiyligi	201
Olimova D.Z. Using speech compression techniques in simultaneous interpreting	203
Omanboyeva A.D. Badiiy adabiyotda zuhdiy qarashlar va zohid obrazining paydo bo’lishi	206
Otaniyazova M.O. Communicative features of speech	209
Otaxonova H.A. Paradigms of knowledge in modern linguistics	212
Polvonova M.F. Proverbs with a "currency" component in the phraseological systems of english and uzbek languages	214
Po’latova O’ A. Komissiv nutqiy aktlar turlari va ularning nutqda ifodalanishi	217
Qayumova N.X. Ommaviy axborot vositalarining tilshunoslik va mediatilshunoslik aspektlari: yangiliklar matni tahlili	220
Qilichova Z.N. The use of stylistic devices in john donne`s metaphysical poetry	223
Qodirova G.M. Ayol jinsini ifodalovchi indikatorlar	226
Qo’shmurodova D.I., Xomidova M.F. Reklama matnida til birliklarining ahamiyati	228
Qurbonova N.R., Babajanova Z.R. Tog’ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarida badiiy tasvirning fonostilistik xususiyatlari	232
Rahimova B.B. Mushohadaga chorlovchi asar	235
Rajabov M. Linguistic and pragmatic aspects of semantic derivation	239
Rasulova A.M., Abdullayeva G.V. Bolalar she’riyatining tadqiqiga doir	241
Ro’zmetov H.Q., Mayliyeva G.B. T.Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” asari 3- bobida o’zbek va ingliz tillarida sifatning semantik-funksional xususiyatlari tahlili	244
Sadikova D.N. Den Braunning “Da Vinchi siri” asaridan “pentakl” ramzining intertekstual tahlili	248
Safarova Z.T., Rahmonova S.U. Lingvocultural aspects of similes in english and uzbek proverbs	252
Saidnazarova S.K. Zamonaviy medialingvistikada publisistik uslub: tahlil va tasnif	254
Saidova R.M. Adabiy ta’sir va taqlidgo’ylik masalalari	256
Saidova M.U., Olimova Sh. Badiiy diskursda qo’llab-quvvatlash kommunikativ strategiyalarining ifodalanishi	259
Saidova M.U., Nadirxanova N.A. O’g’zaki diskursda rad etishning kommunikativ strategiyasi xususida mulohazalar	261
Sanoyeva G.R. Ingliz tilida quvonchni ifodalovchi so’zlarning tahlili	264
Sapayeva G.U. Munis va Ogahiyarning tarixnavislik mahorati “firdavs ul-iqbol” asari misolida	267
Saydamatov I.N. The degree of study of phraseological units with somatic components in modern linguistics	272
Sayfutdinova D.P. “Tilak” nutqiy janrining mohiyati	274
Shabanova S.Dj. Tilshunoslikda sosiopragmatik masalalarining o’rganilishi	279
Shomurodova S.G’. O’zbek xalq ertaklarida tikuvchi obrazi	282
Suvonova D. Unveiling the multifaceted world of taste adjectives in the english language: exploring their linguistic significance and role in culinary discourse	285
Teshaboyeva Z.Q., Borasulova D.D. “Firdavs ul-iqbol” asarida “o’lmoq” leksik semantik maydoni va inglizcha tarjimalari tahlili	287
Teshayeva D.O’. The role of computational linguistics in conducting statistical research	292
Tillaboyeva G.S. Ayollar kiyimi va modasi lug’atini rus, ingliz va tojik tillarida o’rganishning nazariy asoslari	294
Toshboyeva M.E. Pragmatic aspects in the passive constructions in uzbek and english languages	297
Turakulova D.M. Kognitiv konsept tahlili va uning tuzilish tavsifi	300
Turobova G. Tilshunoslikda sinonim so’zlar lug’atlarining umumiy tuzilishi	302
Tursunov E.U. Xorijiy qodiriyshunoslar va tarjimonlar ijodini o’rganish	305
Tursunova M. Joan Rouling fantastik dunyosida realistik elementlar tasviri	308

vositalarning o'ziga xosligi ularning ko'p funktsionalligidan kelib chiqadi. Grafik vositalarning asosiy vazifasi (funksiyasi) aksentuatsiya (urg'u berish, diqqatni tortish), ya'ni matnning u yoki bu parchasini ajratib, bo'rttirib ko'rsatish, urg'u berishdir. O'z navbatida aksentuatsiya e'tiborni jalb etish, emotsional ta'sir ko'rsatish, tagmatn (podtekst) yaratish va konseptual ahamiyatga ega axborotni ifodalashga yo'naltirilgandir. Mazkur da'volar isbotini ingliz va o'zbek badiiy adabiyoti namunalari asosida keltirish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Amerika tilshunosligiga ko'ra "diskurs" tushunchasi faqat og'zaki muloqot natijasida qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. O'zbek tilshunoslari "diskurs" tushunchasini kengroq ko'rib chiqadilar. Tadqiqotchilar bu tushunchalarni statika/dinamika yo'nalishi bo'yicha qat'iy ravishda farqlashga moyildirlar, ya'ni matn ma'lum bir natija, muloqot mahsuli bo'lib ko'rinadi, nutq esa muloqotning o'zi, jonli jarayondir. Diskursning o'ziga xosligi uning antropotsentrikligi hamda muallif tomonidan modellashtiriluvchi o'zgacha olamning badiiy manzarasini obrazli shaklda ifodalay olishidir. Shu ma'noda diskurs kommunikatsiyaning eng murakkab turlaridan biri bo'lgan badiiy-adabiy muloqotning bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Uning subyektlari nafaqat muallif va kitobxon, balki personajlar hamdir. Badiiy matnning nutqiga kelsak, u boshqa nutq turlaridan sezilarli farq qiladi, bu muallif va oluvchi o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sirning alohida turini, dunyo haqidagi madaniy, estetik va individual bilimlardan foydalanishni va uning aksini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ашурова Д.У. Стилистика в свете когнитивной теории языка // Ўзбекистонда хорижий тиллар /Илмий методик электрон журнал. — Т.2018. - №2 (21)
2. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. - М.: Искусство, 1976. - 614 с.; Щерба Л. В. Избранные работы по русскому языку. - М.: Учпедгиз, 1957. – 188 с.
3. Юнг К. Структура психики и процесс индивидуализации. - М., 1998. -220 с.
4. Қосимова М. Бадий нутқ индивидуализациянинг лингвистик хусусиятлари. филол.фан номз.дисс...Т.2007
5. Brayant Dj., Tompson S. Основы vozdeystviya SMI. М.: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2004. - 432 s.

UO'K 808.3

O'G'ZAKI DISKURSDA RAD ETISHNING KOMMUNIKATIV STRATEGIYASI XUSUSIDA MULOHAZALAR

M.U.Saidova, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
N.A.Nadirxanova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslik tarixidagi "an'anaviy tilshunoslik" va "struktur tilshunoslik" bosqichlarining mohiyati, til, lison va nutq, nutq tabiati, antropotsentrizm, sotsiolingvisitika, pragmalingvistika, diskurs, diskursologiyaning shakllanishi xususida fikr-mulohazalar bayon qilinadi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi, uning mohiyati, qo'llanilishi, og'zaki nutq xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Til, an'anaviy tilshunoslik, struktur tilshunoslik, lison, nutq, antropotsentrizm, sotsiolingvisitika, pragmalingvistika, diskurs, nutqiy faoliyat, nutqiy vaziyatlar, kommunikativlik.

Аннотация. В статье раскрыта сущность этапов «традиционной лингвистики» и «структурной лингвистики» в истории языкознания, языка, речи, природы речи, антропоцентризма, социолингвистики, прагмалингвистики, дискурса, дискурсологии. В современном языкознании анализируются понятие дискурса, его сущность, применение, особенности устной речи.

Ключевые слова: Язык, традиционная лингвистика, структурная лингвистика, язык, речь, антропоцентризм, социолингвистика, прагмалингвистика, дискурс, речевая деятельность, речевые ситуации, коммуникативность.

Abstract. This article describes the essence of "traditional linguistics" and "structural linguistics" stages in the history of linguistics, language, language and speech, the nature of speech, anthropocentrism, sociolinguistics, pragmalinguistics, discourse. In modern linguistics, the concept of discourse, its essence, application, and characteristics of oral speech have been analyzed.

Key words: *Language, traditional linguistics, structural linguistics, language, speech, anthropocentrism, sociolinguistics, pragmalinguistics, discourse, speech activity, speech situations, communicativeness.*

“Sivilizatsiyaning muhim vazifasi - insonlarni fikrlashga o‘rgatishdir”.

T.Edison

Kirish. Ma'lumki, tilshunoslikda lison va nutqni izchil farqlab o'rganish avvalo, tilshunoslar Vilhelm fon Humboldt, Boduen de Kurtene va Ferdinand de Sossyur nomlari bilan bog'liq. Lison va nutqning farqlanishi, tilga sistema sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida tub burilish sifatida baholanadi.

Aytish mumkinki, tilshunoslik tarixi va rivoji tilning tabiati va mohiyatiga turlicha yondashuvlar va metod va metodologiyalar asosidagi izlanish natijalarini o'z ichiga oladi. Tilshunoslik tarixidagi “an’anaviy tilshunoslik” va “struktur tilshunoslik” bosqichlarining mohiyati ham til tabiati va mohiyatiga turlicha yondashuv, shuningdek, xilma-xil metodologiya va metodlarga asoslangan tahlil natijalariga ko'ra oydinlashadi. Sir emaski, har qanday fan rivojlanishning turli bosqichlaridan o'tib takomillasha boradi. Albatta, oldingi bosqich keyingi bosqichdagi taraqqiyotga zamin hisoblanadi. Dunyo tilshunosligida ham yoki o'zbek tilshunosligi misolida ham aytish mumkinki, fan taraqqiyotining oldingi bosqichida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga tanqidiy baho bergan holda, ularni bartaraf qilishga yordam beradigan tadqiqot metodologiyasi va metodlarini qidirishga harakat qilindi va ancha yutuqlarga erishildi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa XX asrning uchinchi choragidan boshlab o'zbek tilshunosligida tilning ichki struktur belgilarini yoritishga yordam beradigan yangi tadqiqot metodlarini qo'llashga intilish kuchaydi. Bu davrda yetakchi o'zbek tilshunoslaridan A.Nurmonovning ta'kidlashicha: “Nutqiy faoliyat til va nutqning dialektik munosabatidan tashkil topishining e'tirof etilishi sistemaviy tilshunoslikning vujudga kelishiga dadil qadam bo'ldi.”[1] O'z navbatida tilshunos olim buni shu davrdagi tarixiy sharoit, ya'ni milliy o'z-o'zini anglash hissining kuchayishi bilan bog'laydi. Darhaqiqat, nutqiy faoliyat til va nutqning dialektik munosabatidan tashkil topishining e'tirof etilishi sistemaviy tilshunoslikning vujudga kelishiga dadil qadam bo'ldi.

Sistemaviy tilshunoslikda paraglingvistika paralingvistika bevosita nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida fikr ifodalash bilan bir vaqtda yuzaga keluvchi, so'zlashuv nutqining doimiy hamrohi bo'lgan qo'l va yuz harakatlarini(imo-ishora, mimika), nutqning balandligi, ekspressiv-emotsional bo'yoq kabi qator jihatlarni o'rganuvchi sohadir. Pragmatik lingvistika esa struktur tilshunoslik yutuqlari, natijalari asosida shakllangan yangi bosqichdagi fahmiy (emprik) tadqiqotlar, izlanishlar natijasidir. U lisoniy birlikning qo'llanilish vaziyatini, nutqiy faoliyatini sistema sifatida oladi. Shunga ko'ra muayyan birlikni nutqiy faollikda, voqelanishda, nutqda namoyon bo'lishda turli nolisoniy omillar va turli sathlar bilan hamkorlikda, ular bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganadi, tekshiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning bugungi manzarasiga nazar tashlar ekanmiz, uning naqadar serqirra, shuningdek, serjilo bo'yoqlarda tovlanayotganligining guvohi bo'lamiz. Darhaqiqat, shiddat bilan o'zgarayotgan davr bizni ham o'z ortidan ergashtira olishi tabiiy. Davr bilan hamnafaslik esa – taraqqiyot kafolati. Zamonaviy tilshunoslikdagi ilg'or qarashlarni o'rganish asnosida respublikamizning taniqli tilshunos olimlaridan Sh.Safarovning ilmiy izlanishlari tufayli nutqiy faoliyat tadqiqi yo'nalishida anchagina mukammal, jiddiy natijalarga erishilganligiga ishonch hosil qildik. Tilshunos olim Sh.Safarov, keyingi paytlarda tadqiqotchilar diqqati insonlar o'rtasidagi o'zaro fikr almashinishi, aloqa-munosabat jarayonlari va ijtimoiy nutq tabiatining tadqiqiga ko'proq qaratilayotgani, anchadan beri tilshunoslar nazaridan chetda qolib kelgan bu masala hozirgi kunda fanning eng muhim, dolzarb muammolaridan biriga aylanganligini ta'kidlab ko'rsatadi. Olimning fikricha, o'tgan asrning uchinchi choragida lisoniy vositalar, hodisalar sirasi sistem-struktur tilshunoslik tadqiq tamoyillari asosida aniqlanib, birmuncha tugal tavsiflangach – asosiy e'tibor bu hodisa birliklarining nutqda qo'llanishi va ulardan qay yo'sinda mumkin qadar samarali foydalanish yo'llariga, boshqacha qilib aytganda, lisoniy birliklarni unumli, samarali qo'llash, kam kuch sarflab ko'p samara olish yo'llarini aniqlashga qaratiladi. Zero, bozor iqtisodiyoti

sharoitida mazkur masala mavjud ko'plab muammolarning yechimini topishda muhim rol o'ynaydi. Sh.Safarov nutqni jarayon sifatida o'rganish faqat muloqot - so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs (fikr almashtirish), savolga yarasha javob berish holatidagina tadqiq etilishi mumkinligini shu bois XX asrning oxirlarida tilshunoslikning yangi bir tarmog'i diskursologiya nutqiy muloqotni tadqiq etuvchi fan sifatida shakllanganligini asoslab beradi[2].

Aytish joizki, jahon tilshunosligida antropotsentrizm, fanlararo aloqadorlik va diskurs masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: kognitiv tadqiqotlarning fanlararo bog'liqlik xususiyati o'rganilgan (Cambridge University), diskursning kognitiv, pragmatik o'ziga xosliklari aniqlangan (Lancaster University, University of Edinburgh), diskurs pragmatik intensiyalarining o'ziga xosliklari o'rganilgan (Barcelona University), diskursning sotsiolingvistik aspektlari ko'rib chiqilgan (University of Toronto), diskursning fanlararo xarakteri o'rganilgan (University of Copenhagen), University of Edinburgh), tanqidiy diskurs tahlilning til markerlari tahlil qilingan (Ohio State University), tanqidiy diskurs-tahlilning tamoyillari belgilangan (Vrije Universiteit), University of Bern), tilning harakatdagi o'ziga xosliklari o'rganilgan (Oxford University); badiiy diskurs tahlili o'tkazilgan (Afyon Kocatepe University) va hokazo.

Shuningdek, badiiy matn hamda diskursga fanlararo va antropotsentrik yondashuv masalasi bir qator xorijiy va mahalliy olimlar: P.Verdonk, A.Vejbitskaya, T.A. van Deyk, Dj. Lakoff, G.Lich, N.F. Alfrenko, N.D. Arutyunova, I.V.Arnold, N.N. Boldirev, I.R. Galperin, A.V. Karasik, YU.N.Karaulov, E.S. Kubryakova, V.A. Maslova, E.V. Paducheva, YU.S. Stepanov, V.N. Teliya, D.U. Ashurova, N.M. Mahmudov. Sh S. Safarov, R.S. Sayfullayeva, M.I. Rasulova, A.E. Mamatov, X.I. Islamdjanova, D.E. Lutfullayeva, D.S. Xudoyberganova, M.R. Galiyeva, N.M. Djusupov va boshqalarning ilmiy ishlarida ishlab chiqilgan.[3] Demak, diskurs muammosi turli-tuman yondashuv va fikrlarning ko'pligi bilan xarakterlanuvchi keng va ziddiyatli tadqiqot sohasidir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, struktural tahlil usullari tahlilidan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Mazkur muammoga bog'liq mavjud adabiyotlarning detallashtirilgan tahlili diskursning nisbatan ahamiyatli xarakteristikalarini yuzaga chiqarish imkonini berdi. Ular sirasiga antropotsentrizm, intensionallik, adreslilik, integrativlik, situativlik, protsessuallik, ochiqlik, dinamiklik kabilar kiradi. Sanab o'tilgan belgilar diskursni, matnni turli ekstralingvistik (nolisoniy) omillar: kommunikantlar, muloqot vaziyati va sharoiti, maqsadlar, sotsiomadaniy kontekstlarni o'z ichiga oluvchi murakkab, fanlararo, ko'p qirrali, kommunikativ-kognitiv hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Aytish joizki, bugungi kunda olib borilayotgan sotsiolingvistik tadqiqotlar lisoniy birliklarni qo'llash nafaqat nutq sharoiti, vositasi va hokazo kabi ijtimoiy hodisalar bilan, balki har bir xalq, millat, hatto, ijtimoiy guruh yoki toifa uchun odat tusiga kirgan qator urf-odatlar, rasm-rusumlar, ya'ni etnografik tomonlar bilan aloqador ekanligini ko'rsatdi. Shuning natijasida nutqni ham lisoniy, ham etik-egnografik xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq etish natijasida sotsiolingvistikaning yangi tarmog'i - *etnosotsiolingvistika* shakllandi va bugungi kunda jadal rivojlanmoqda. Professor Sh. S.Safarovning ta'kidlagandek, jahonda hukm surayotgan bozor iqtisodiyotining eng asosiy omili faoliyatning samaradorligi hisoblanadi. Bu samaradorlik kam sarflab, ko'pga erishishni nazarda tutadi. Shu tamoyil asosida lisoniy birliklardan ijtimoiy (sotsial) etnik omillarni hisobga olgan holda qay birini muayyan sharoitda qo'llash ko'proq samarali, ya'ni ta'sirchan ekanligini o'rganuvchi etnosotsiolingvistikaning yangi bir tarmog'i - etnosotsiopragmatika yoki pragmatik *etnosotsiolingvistika* shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Etnosotsiopragmatika (pragmatik etnosotsiolingvistika) nazariyasi jahon tilshunosligida hali to'la shakllangan emas.O'zbek tilshunosligida esa bu sohaga ilk qadamlar qo'yilmoqda.[4]

Nutqiy vaziyat – bu suhbatdoshlarni ma'lumot almashishga undovchi tashqi sharoit va ichki psixologik reaksiyalarning murakkab kombinatsiyasidir. Nutq samarali bo'lishi uchun ba'zi prinsiplarga amal qilish kerak. Nutqiy odob-axloq prinsipi so'zlovchining qayerda kim bilan qanday munosabatda bo'lishi kerakligini ta'kidlab turadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, inson omilini tilda o'rganishni nazarda tutuvchi antropotsentrik paradigma kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvokonseptologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika singari yo'nalishlarni o'z ichiga birlashtiruvchi makroparadigmadir. Dunyo tilshunosligida paydo bo'lgan yangi yondashuvlar natijasida inson omilini "til-inson-muloqot", "til-inson-tafakkur", "til-inson-madaniyat" prizmasida ko'rib chiqish yoki bir so'z bilan aytganda "til va ijtimoiy hayot" muammosi o'zbek tilshunosligiga ham tadqiqotlar ko'lamini va doirasini kengaytirishga imkon berdi. Jumladan, ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelayotgani ijtimoiy muammolarni xorijiy tillar kontekstida o'rganish istiqbollarini belgilab berdi. "Til va ijtimoiy hayot" muammosi yosh avlodning ma'naviy-aqliy salohiyatini yuksaltirish va dunyoqarashini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Zotan, "nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak"[5]. Darhaqiqat, yuksak tafakkur sohibigina ijodiy fikrlay oladi hamda fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda ravon ifodalash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurmonov, Abduhamid. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. O'quv qo'llanma, O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: Ta'lim, 2009. — 160 b.6-bet.
2. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этнососоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. - 39 бет.
3. Ашурова Д.У. Стилистика в свете когнитивной теории языка//Ўзбекистонда хорижий тиллар/Илмий методик электрон журнал. — Т.Д018. - №2 (21)
4. Мо'минов С. О'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. DDA. — T.: 2000.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.01.2020 й. Электрон манзил <https://uza-uz/nj/pditics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>.

UO'K 81'33

INGLIZ TILIDA QUVONCHNI IFODALOVCHI SO'ZLARNING TAHLILI

G.R.Sanoyeva, dots.v.b., PhD, Jizzax politexnika instituti, Jizzax

Annotatsiya. Ushbu maqola ushbu tuyg'u bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni tahlil qilish orqali ingliz tilidagi quvonchning lingvistik manzarasini o'rganadi. Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish va empirik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali biz quvonchni ifodalovchi turli leksik birliklarni aniqlaymiz va toifalarga ajratamiz. Ushbu so'zlarning semantik nuanslari, chastota taqsimoti va kontekstual ishlatilishini o'rganib chiqib, biz quvonchning lingvistik kodlanganligi va ingliz tilida qanday ifodalanishini chuqurroq tushunishni maqsad qilganmiz.

Kalit so'zlar: Quvonch, Tuyg'u, Leksik tahlil, Ingliz tili, Semantik klasterlar, Ijobiy ta'sir, Nayajon, Rahmat

Аннотация. В этой статье исследуется лингвистический ландшафт радости в английском языке путем анализа слов, обычно связанных с этой эмоцией. Путем всестороннего обзора существующей литературы и анализа эмпирических данных мы идентифицируем и классифицируем различные лексические единицы, выражающие радость. Исследуя семантические нюансы, частотное распределение и контекстное использование этих слов, мы стремимся обеспечить более глубокое понимание того, как радость лингвистически кодируется и выражается в английском языке.

Ключевые слова: Радость, Эмоция, Лексический анализ, Английский язык, Семантические кластеры, Позитивный аффект, Волнение, Благодарность.

Abstract. This paper explores the linguistic landscape of joy in the English language by analyzing words commonly associated with this emotion. Through a comprehensive review of existing literature and empirical data analysis, we identify and categorize various lexical units expressing joy. By examining the semantic nuances, frequency distributions, and contextual usage of these words, we aim to provide a deeper understanding of how joy is linguistically encoded and expressed in English.